

CHET TILINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Rahmonberdiyeva Karima Saydanovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Pedagogika bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya: *Mazkur maqolada chet tilini o'qitishda mustaqil ta'limni rivojlantirish metodikasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Mustaqil ta'limning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni, uning talabaning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, mustaqil ta'limni samarali tashkil etishning metodik yondashuvlari, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, didaktik vositalar, raqamli texnologiyalarning roli haqida so'z yuritiladi. Maqolada talabalarda chet tilini mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish, o'z-o'zini baholash, refleksiya, va tanqidiy fikrlash kabi jarayonlar metodik jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Chet tili, mustaqil ta'lim, metodika, ta'lim texnologiyalari, o'quv jarayoni, o'z-o'zini o'rganish, raqamli vositalar, ta'lim samaradorligi, motivatsiya, refleksiya.*

Mustaqil ta'limni tashkil etish, mustaqil ta'lim topshiriqlarini tanlash va ularga qo'yilgan talablar, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining mustaqil ta'lim ko'nikmalarini, kommunikativ kompetentligini rivojlantirish muammosi xorijlik metodist, lingvist, pedagog olimlarning ilmiy tadqiqod ishlarida o'rganilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlar natijada ingliz tili o'qitishning talabaga yo'naltirilgan yondashuv kontekstida "avtonomlik", avtonom o'rganish (autonomous learning), "til o'rganuvchi avtonomiyasi" (learner autonomy), "mustaqil ta'lim ko'nikmalari" (independent study skills) kabi tushunchalar keng qo'llanila boshlandi. Avtonom o'rganish "mustaqil ta'lim olish", "o'z-o'zini tarbiyalash" xamda "mustaqil o'qish" uchun maksimal darajada mas'uliyatni olishi kerak degan tamoyilni anglatadi. Yevropa Kengashining til siyosati dasturi tomonidan "chet tilini egallashning umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'rgatish va baholash" (CEFR) malaka talablari asosida ishlab chiqilgan "Evropa tilining portfoliyosi" (The European Language Portfolio (ELP)² ham talaba avtonomiyasi (learner autonomy), plurilingualizm va madaniyatlararo xabardorlik (intercultural awareness) va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlanishini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ELP o'rganuvchilarni tilni o'rganish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga undaydi ya'ni mustaqil ta'limni zaruratini nazarda tutadi. Shuningdek, talabalarning SEFR malaka talablari asosida o'z-o'zini baholash va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish

borayotganligini aniq ko'rishga ko'maklashadi va talabada o'ziga ishonch va mamnuniyat hissini oshiradi. (Deskriptorlar talabalarning tushunishlari uchun nisbatan oson, shuning uchun ular nimani maqsad qilib olganliklarini va unga Yevropa Kengashining til siyosati dasturining "Evropa tilining 2 portfoliyosi" (The European Language Portfolio <https://www.coe.int/en/web/portfolio> erishganliklarini ko'ra oladilar. Agar talabalar taraqqiyotga erishayotganliklarini ko'ra olsalar, ularda ko'proq qoniqish hosil bo'ladi.) V. Littlvud (1997) ingliz tili o'qituvchilarining avtonom (mustaqil) ta'lim ko'nikmalariga ega bo'lishlarini va mustaqil ta'limni tashkil etishning zaruratini quyidagicha izohlaydi: 1. Ingliz tili o'qituvchilari o'quvchilarini tildan jonli vaziyatlarda mustaqil muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni maqsad qiladilar. 2. Ingliz tili o'qituvchilari o'quvchilarini mustaqil ta'lim olishlari uchun sinfda va sinfdan tashqari ishlarni mas'uliyat bilan mustaqil va faol tarzda bajarishlarida yordam berishni maqsad qiladilar. 3. Ingliz til o'qituvchilari o'quvchilariga ko'proq mustaqil muloqot qilish, ko'proq mustaqil o'rganish va shaxs sifatida mustaqil bo'lish uchun talab etiladigan motivatsiya, ishonch, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishlari kerak. Shunga ko'ra, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining avtonomligi, mustaqil ta'lim ko'nikmalarining rivojlantirishi, o'z-o'zini tarbiyalashi, bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam mustaqil ta'lim vositasida rivojlantirishi uni kasbiy faoliyati davomida faol va ijodkor o'qituvchi bo'lishga undaydi. Demak, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining o'rganilayotgan chet tilini OTMda to'rt yil davomida C1 darajada egallashi uchun mustaqil ta'limni o'qishning dastlabki bosqichidan "mustaqil ta'lim ko'nikmalari" fani orqali mustaqil o'z ustida ishlashni o'rganadi, o'z-o'zini tarbiyalaydi, mustaqil ravishda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida, bo'lajak chet tili o'qituvchisi uchun zaruriy kommunikativ kompetensiyalarini, sotsiolingvistik kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish zarurati va ehtiyojini oshiradi. OTMlarda talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va Littlewood, W. (1997). Self-access work and curriculum ideologies. P.111 baxolash tartibi tug'risida namunaviy yo'riqnomada talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishni ikki turga: auditoriyada amalga oshiriladigan mustaqil ta'lim va auditoriyadan tashqarida mustaqil ta'limga ajratilgan. Unga ko'ra, auditoriyada amalga oshiriladigan mustaqil ta'lim talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini o'zlashtirish darajasini, amaliy mashg'ulot darslariga (seminar, amaliyot, laboratoriya) tayyorgarlik va uyga berilgan topshiriqlarning bajarilish sifatini tekshirish maqsadida joriy, oraliq va yakuniy nazorat ishlari olish, savol-javob, suhbat, munozara kabi usullardan foydalaniladi. Auditoriyadan tashqarida mustaqil ta'lim fanning ishchi o'quv dasturida belgilangan soatlar miqdorida mavzu bo'yicha qo'shimcha o'quv materiallarini mustaqil ravishda izlab topishi, taxlil qilishi, o'zlashtirishi, ijodiy yondashishini talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko'rinishida amalga oshiriladi.

OTMlarda turli darajadagi mustaqil ish turlari farqlanadi⁴³:

1. Namuna asosidagi mustaqil ish-mustaqil faoliyatning past darajasi;
2. Yechimni aniqlashning taniqli usulini qo'llagan holda topshiriqlarni bajarish. Bu ishlar o'qituvchi tomonidan avval ko'rsatilgan hamda talabalar tomonidan tajribadan o'tkazilgan mustaqil ishlarni qayta takrorlash asosida bajariladi;
3. Rekonsruktiv-variativ tip mustaqil faoliyatning boshlang'ich darajasi. Bilimlarni tipik vaziyatlarga ogli ravishda o'tkazish, turli hodisalar, voqealar, faktlarni tahlil qilish, bilish faoliyati metodlari va usullarini shakllantirish imkoniyatini beradi;
4. Evristik mustaqil ishlar-mustaqil faoliyatning harakatchan darajasi. Talabalarda ijodiy shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Bu tipdagi ishlarni bajarishda doimiy ravishda yangi bilimlarni izlash, egallagan bilimlarni umumlashtirishva tizimlashtirish, ularni nostandart vaziyatlarga o'tkazishni taqozo etadi;
5. Predmet ichida va predmetlararo tadqiqot tipidagi mustaqil ishlar-mustaqil faoliyatning yuqori darajasi. Mustaqil ishlarni bajarishning eng yuqori bosqichi hisoblanib, bunday ishlarni bajarishda vazifa yechimini topish yo'llarini ishlab chiqish talab etiladi.

Demak, bilimlarni mustaqil ravishda egallashga yo'naltirilgan faoliyat ta'lim jarayonining ajiralmas qismi hisoblanadi. OTMlarda o'qishning dastlabki bosqichida mustaqil ishni tashkil qilish bir qator vazifalar bilan bog'liq bo'lib, mazkur jarayonda xar bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan vosqichma-bosqich mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etishga o'rgatib borishi zarurligini isbotlaydi.

Pedagog olim K.Risqulova bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimini tadqiq qilish jarayonida, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetentligini shakllantirish jarayonida mustaqil ta'limning kuyidagi to'rt usullaridan foydalanish samarali bo'lishini ta'kidlagan:

1. Auditoriyadan tashqarida mustaqil ta'lim (ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlarda o'rganilgan mavzularni mustaxkamlash maqsadida qo'shimcha o'quv materiallari jumladan, ijtimoiy, ilmiy-nazariy maqolalar, metodik jurnallar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar asosida qisqa sharhlar, esselar, hikoyalar va maqolalar yozish, maruza va taqdimotlar tayyorlash; o'rganilgan mavzu asosida ko'rgazmali qurollar, diagramma, jadvallar, rasmlar tayyorlash; joriy, oraliq va yakunish nazorat ishlariga mustaqil tayyorlanish);

⁴³ Г.Курбонова, Ш.Юлдашева. Мустақил ишни ташкил этиш тамоиллари. Тил ва адабиёт таълими илмий методик журнали, 2021 йил 3-сон. 10-бет

2. Bevosita o'qituvchi bilan talaba xamkorligida auditoriyada bajariladigan mustaqil ta'lim (til o'qitish jarayonida talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlarni individual, sherikchilik, kichik va katta guruxlarda qiziqarli va samarali tashkil qilishga qaratilgan bo'lgan turli topshiriqlar);

3. Ilmiy-ijodiy, ilmiy-tadqiqot badiiy-ommabop mavzularda kurs ishlari, diplom ishi, asarlar yaratish va b.k.

4. Ijtimoiy-xayotiy mavzularda jumladan, bozorda, bayramda, teatrd, sayoxatda, bog'da, muzeyda, hiyobonda jonli kommunikativ aloqa o'rnatish. Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingivistik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan o'quv materiallari ishchi o'quv rejadagi mavzularni kengroq o'rganilishi, to'ldirishiga xizmat qilishi, mashg'ulotlarda egallagan bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda turli matnlar, amaliy taqdimotlar, keyslar, turli xil insholar, guruh muhokamalar, bahs-munozaralar orqali yanada boyitish, tilni madaniyat bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganish, nutq modullarini (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv) rivojlantirish, tili o'rganilayotgan xalqning axloqiy me'yorlarini o'rganish, sohaga oid konferensiya, davra suhbatlari, munozara (jonli yoki vositali) larda erkin muloqot qilish, turli ijtimoiy jonli vaziyatlarda tilni o'rinli va faol qo'llay bilishni rivojlantirishga qaratilgan o'quv materiallarini topshiriqlarni yaratish yoki qidirish, yig'ish, saralash, tasniflash, taxlil, sintez, induksiya, deduksiya qilish asosida kayta ishlash, xulosa va tavsiyalar ishlab chikish natijasida mustaqil ta'lim talablariga mos material shakllantiriladi. Shunindek, tili o'rganilayotgan mamlakatlar madaniyatiga hos autentik media resurslardan keng foydalanish, jumladan audio, video, komedik videolardan parchalar, badiiy hujjatli filmlar, gazeta va jurnallar, kitoblar, esselar, hikoyalar, konferensiya ma'ruzalari, qo'shiqlar, rasmlar, ijtimoiy reklamalar kabi sotsiolingivistik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan autentik materiallar asosida mustaqil ta'lim topshiriqlaridan keng foydalanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismatullayeva, N. R. (2021). On the Introduction of E-Learning Portfolio in the Educational Process. Current Research Journal of Pedagogics (2767-3278), 2(09), 35-37.

2. Ismatullayeva, N. R. (2022). Possibilities of using the interactive board in foreign language lessons. «. O'zbekiston-Xitoy: Tarixiy-Madaniy, 77.

3. Исматуллаева, Н. Р. (2022). Чет тили дарсларида интерактив доскадан фойдаланиш имкониятлари. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 26), 96-98.

4. Ismatullayeva, N. R. (2022). Teaching Translation Methodology in the Foreign Language Classes. International Journal of Social Science Research and Review, 5(12), 448-452.

5. Ismatullayeva, N. (2022). Chet tiliga o'rgatishda tarjimoni o'quv jarayonida qo'llash masalasi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 28), 224-229.